



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ANGLASH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH VA ASAR QAHRAMONLARINI BAHOLASHGA O‘RGATISH

Erkinova Farangiz Sherzod qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti 406 – guruh talabasi*

E-pochta: farangize007@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining anglash malakalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, faol o‘rganish usullari, va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish badiiy adabiyotga qiziqtirish va undagi qahramonlarni tushuntirish va ularning sezimlarini anglashga o‘rgatish, tanqidiy tafakkur tushunchasi va uni keltirib chiqaradigan turfa axborotlar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion yondashuv, tanqidiy hamda estetik tafakkur, badiiy asarni idrok etish, faol o‘rganish usullari, kommunikativ kompetensiyalar

Kirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini asar qahramonlarini baholashga o‘rgatish usullari shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega, bu ko‘proq o‘qish darslarida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinfda o‘rganiladigan asarlar o‘quvchilarda vatanparvarlik, to‘g‘riso‘zlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishning muhim vositasidir.

Asar qahramonlari ustida ishlashning shaxs tarbiyasidagi ahamiyati o‘quvchilarni qahramonlarning xatti-harakatini baholashga o‘rgatish usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy asarlarga qiziqtirib borish, asar qahramonlarni bilish va ularni tushunish, tuyg‘ularini his qilish hamda ularga nisbatan baho chiqarish asosiy mezon bo‘lib hisoblanadi. Badiiy asar tahlili ustida ishlash jarayonida qahramonlarni baholash uchun o‘quvchilarning tanqidiy tafakkuri ishga tushadi. Tanqidiy tafakkur tushunchasi ostida insonning mustaqil fikrlash tarzi yotadi va uning asosini turfa axborotlar tashkil etadi. Tanqidiy tafakkur tushunchasi zamirida qo‘yilgan masalaga ishonchli dalillar yordamida mustaqil ravishda yondashuv nazarda tutildi.

Mazkur pedagogik hodisaning o‘ziga hos jihat shundan iboratki, unda o‘quvchilar ta’lim jarayonidagi faoliyatlarini o‘zлari aniq, obyektiv maqsaddan kelib chiqqan holda mustaqil tarzda loyihalashtiradilar, xatti-harakati, fikrlari to‘kislashib borishi asnosida rivojlanishlarining darajasini ham namoyish etadilar.

Ayni zamonda zarur yakuniy natijaga ham muvaffaq bo‘ladilar. Boshlang‘ich adabiy ta’limda o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o‘rgatadigan darslar an’anaviy darslardan nisbatan farqlanadi. Bunday darslarda o‘quvchilar o‘qituvchining aytganlarini bajaradigan obyektlidan dars jarayonida faol va mustaqil harakatlanuvchi subyektlarga aylanadilar. Ular oldilariga qo‘yilgan murakkab masalalar, savollar, topshiriqlar ustida o‘ylanadilar, izlanadilar, qayta-qayta badiiy matnga murojat





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qiladilar, bir-birlari bilan fikr almashdilar, badiiy asar va undagi obrazlarni har xil rakurslarda tahlilga tortadilar.

Bu jarayonda, o‘z-o‘zidan, o‘quvchida badiiy matnga nisbatan ijodiy munosabat shakllanadi. Chunki asarning mohiyatiga kirilgani sari u anglanadi, anglangani sari ruhiyatda ma’lum tuyg‘ular paydo bo‘ladi.

Asosiy qism

O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatuvchi o‘qish darslarining turli tiplari va ko‘rinishlari mavjud. Darsning alohida usullari maktab amaliyotida namoyon bo‘ladi. Bunday darslar o‘qituvchilarning amaliy faoliyatida alohida o‘rin egallaydi. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tasniflashga o‘rgatadigan darslar o‘z maqsadiga ko‘ra o‘quvchilarning tanqidiy hamda estetik tafakkurlari, badiiy his-tuyg‘ulari, badiiy asarni idrok etish ko‘nikmakari, obrazli tafakkurni o‘stirish, ular ongini timsollar yordamida boyitish, axloqiy, estetik, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy tarbiyalash, o‘qishga ijobiy munosabat uyg‘otish, badiiy asarni mustaqil tahlil qilish, ularni baholay olish, qiziqarli badiiy asarlarni mustaqil izlab topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qahramonlar ustidagi ishlarni uch bosqichga bo‘lish mumkin:

Qahramonni hissiy, qisman motivlashgan tarzda idrok etish.

O‘quvchilarning birlamchi yaxlit idrokini aniqlashtirish.

O‘quvchilarning umumlashgan motivatsion baholashi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining adabiy ko‘nikmalarini shakllantirishda asar g‘oyasi va qahramoniga alohida e’tibor qaratish kitobxonlik ko‘nikmasini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining anglash malakalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, faol o‘rganish usullari, va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish muhim rol o‘ynaydi.

Innovatsion yondashuvlar interaktiv o‘quv jarayoni multimediali resurslar orqali talaffuzni eshitish va qayta aytishga yordam beradi. Tadbirlar va uchrashuvlar nutq musobaqalari va ijodiy kechalar orqali ishonchni oshirish va chiqish madaniyatini rivojlantiradi. Roll o‘yinlari turli rollarni ijro etish orqali og‘zaki nutq malakalarini oshiradi. Muammoli vaziyatlar o‘quvchilarga muammoli vaziyatlarni hal qilishda o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bu o‘quvchilarning nutqi va tafakkurini uyg‘unlikda rivojlantirishdir. Mustaqil fikrlash va kreativ faoliyatga yo‘naltiruvchi vositalarni qo‘llash. Mnemik-ta’limiy faoliyatga asoslangan yondashuvlar orqali o‘quv materiallarini tuzish. Shuningdek, o‘qish darslarida matnni qismlarga bo‘lib, sarlavha qo‘yish, rasmlar chizish, va savollar topish kabi usullar orqali ham anglash malakalari rivojlantiriladi. To‘g‘ri o‘qish, xatosiz o‘qish, va o‘z-o‘zini kuzatishga o‘rgatish ham muhimdir.

O‘quvchilarda badiiy asar mutolaasiga qiziqish uyg‘otish adabiyot o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyaning mushtarak muammosi sifatida soha xodimlarini ko‘pdan buyon qiziqtirib keladi. Milliy o‘qitish tizimida savol va topshiriqlar ustida ishslash





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



muammolari bir qator metodist olimlar izlanishlarida tadqiq etilgani ko‘zga tashlanadi. Jumladan, M.Mirqosimova tomonidan turli janrdagi asarlar tahlilida darslikda keltirilgan savol-topshiriqlar badiiy asarning shakl unsurlari bilan mazmun yaxlitligini uyg‘un holda tushunishga qaratilishi nuqtayi nazaridan o‘rganilsa⁴, Q.Husanboyevanig ilmiy tadqiqotida uy vazifalarini so‘rashning asosiy quroli sifatida izohlanadi⁵. R.Niyozmetovaning tadqiqot ishida esa savol-topshiriqlarning matnga nisbatan joylashtirilishiga ko‘ra o‘qishgacha va o‘qishdan keyingi ikki turi, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligida adabiy asarni o‘qib-o‘rganishlari mobaynida ko‘rsatadigan faoliyatiga bog‘liq holda tuzilishiga e’tibor beriladi⁶.

Rossiyalik metodist olimlar G.V.Pransova, V.Chalmayev va S.Zininlar amalda matn tahlilining bir qator samarali usullarini taklif etadilar. Bular namunaviy rejalar; modul-asoslar; “tayanch” materiallar. V.Chalmayev va S.Zininlarning fikricha, tahlilni qadamma-qadam izchil tarzda amalga oshirishga yordam beradigan “tayanch” materiallar maqsadi metodik xilma-xil va ayni paytda, yagona, ya’ni o‘quvchilarning analitik iqtidori va ijodiy potensialini oshirishga qaratiladi. Bu turdagи tahlil modeli vazifalarning asosiy qismi materialga savollar shaklida berilishidadir⁷. Savol-topshiriqlar o‘quvchini mutolaaga qiziqtirishi, fikrlashga undashi, kontekstni tushunishga tayyorlashi, tahlilga yo‘naltirishi, sintez, baho berish, mavzuni boshqa fanlar, eng muhimi, hayotga bog‘lay olishi nuqtayi nazaridan ham samaralidir. Shuningdek, badiiy asarning tasvir obyekti, tuyg‘ular tarbiyasini to‘la yoritishga, obrazlilikni tasavvur ettirishga, kitob bilan hayot o‘rtasidagi aloqadorlik xususida mushohada yuritishga yo‘naltiradi. O‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini kichik maktab yoshidan boshlab shakllantirishga doir optimal va rag‘batlantiruvchi texnologiyalarni tasniflar ekan, professor N.Egamberdiyeva matn ustida ishlash jarayonini o‘qishgacha, o‘qish davomida va o‘qishdan keyin uch bosqichda tashkil etish samara berishiga alohida urg‘u qaratadi⁸.

Xulosa

Badiiy asar tahlili ustida ishlash jarayonida qahramonlarni baholash uchun o‘quvchilarning tanqidiy tafakkuri ishga tushadi. Tanqidiy tafakkur tushunchasi ostida insonning mustaqil fikrlash tarzi yotadi va uning asosini turfa axborotlar tashkil etadi. Psixologik-pedagogik kompetentlikning asosini pedagogning turli yosh guruhlari bosqichida o‘quvchi shaxsining rivojlanish qonuniyatlariga rioya etgan holda ta’sir etuvchi faol bilimi va harakati tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan kasbiy kompetensiya pedagoglarning faoliyatidagi yetuklik ko‘rsatkichi hisoblanib, mutaxassisning muloqot jarayonida shaxs hamda mutaxassis sifatida shakllanishida asosiy omil bo‘la oladi. Demak o‘quvchilarga badiiy asar qahramonining ijobiylarini yetkazib berish va tahlil etishda pedagoglarning kasbiy kompitentligi muhim omil ekanligini unutmaslik lozim.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoldinova" Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" kitobi. Toshkent - 2020
2. R.Tolipova, O'Mavlonova, D.Xujaeva "Til va adabiyot o'qitish metodikasi" kitobi. Toshkent – 2004
3. Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 253
- 4.Хусанбоева Қ. П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262
5. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гурухлари мисолида). Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 149-б
6. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Amaliy mashg‘ulotlar. – Toshkent: Bayoz, 2011. – 240 b.
7. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167 b.
8. Зуннунов А. ва бошқ. Ададбиёт ўқитиши методикаси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 329 б
- 9.azkurs.org
10. ares.uz
11. amazon.sg

